



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI
O'SIMLIKAR KARANTINI VA
HIMOYASI AGENTLIGI**

**O'SIMLIKAR KARANTINI CHEGARA MASKAN(PUNKT)IDA
DAVLAT INSPEKTORINING FAOLIYAT YURITISHI
BO'YICHA YO'RIQNOMA**

Toshkent – 2023

Mundarija

1- bob.	Umumiy qoidalar.
2- bob.	O‘simliklar karantini chegara maskan(punkt)ida davlat inspektori faoliyatini tashkil etish.
3- bob.	O‘zbekiston Respublikasidan karantin ostidagi mahsulotni olib chiqishda fitosanitariya nazoratini o‘tkazish.
4- bob.	Fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirib berish.
5- bob.	O‘zbekiston Respublikasiga karantin ostidagi mahsulotni olib kirishda va tranzit tarzida olib o‘tishda fitosanitariya nazoratini o‘tkazish.
1-§.	Karantin ostidagi mahsulotni olib kirishda va tranzit tarzida olib o‘tishda Davlatlararo O‘KCHMda davlat inspektorning vazifalari.
2-§.	Karantin ostidagi mahsulot yuklangan transport vositalarini Davlatlararo O‘KCHMda fitosanitariya nazoratini o‘tkazish.
3-§.	Fitosanitariya nazorat o‘tkazish natijasiga ko‘ra qaror qabul qilish.
4-§.	Qo‘l yuklari va bagajlardagi karantin ostidagi mahsulotni fitosanitariya nazoratini o‘tkazish.
5-§.	Pochtamdagi o‘simliklar karantini punktida fitosanitariya nazorati o‘tkazish.
6-§.	Karantini ostidagi mahsulotni karantin ruxsatnomasida belgilangan manzilga yetib kelgan joyda fitosanitariya nazoratdan o‘tkazish.
7-§.	O‘tkazilgan fitosanitariya nazorati natijasida davlat inpektori qaror qabul qilish.
8-§.	Respublika ichidagi avtomobil yo‘llari (YPX) O‘KCHMda fitosanitariya nazorat o‘tkazish.
5- bob.	Yakunlovchi qoida.
Foydalanish uchun video qo‘llanmalar	
	Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Fitosanitariya sertifikati olish uchun elektron buyurtma berish.
	Davlat inspektori tomonidan Fitosanitariya sertifikati rasmiylashtirib berish.
	Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Karantin ko‘rigi dalolatnomasi olish uchun elektron buyurtma berish.
	Davlat inspektori tomonidan Karantin ko‘rigi dalolatnomasi rasmiylashtirib berish.

O‘SIMLIKLAR KARANTINI CHEGARA MASKAN(PUNKT)IDA DAVLAT INSPEKTORINING FAOLIYAT YURITISHI BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

Mazkur Yo‘riqnoma o‘simliklar karantini va himoyasi sohasidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq O‘simliklar karantini davlat inspektori (keyingi o‘rinlarda – davlat inspektori) tomonidan karantin ostidagi mahsulotni olib kirish, olib chiqish, tranzit tarzida olib o‘tish hamda respublika hududida yetishtirilgan karantin ostidagi mahsulotlarni hududlararo tashishda fitosanitariya nazorat tartib-taomillari amalga oshirilishining qadamma-qadam harakatlarini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

karantin ostidagi mahsulot — o‘simliklar karantini obyektlarini tashuvchilar bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘simliklar, ularning qismlari, ekish materiallari, qayta ishlash mahsuloti, boshqa mahsulot va yuklar;

karantin ruxsatnomasi — karantin ostidagi mahsulotni belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishga yoki uning hududidan tranzit tarzida olib o‘tishga ruxsat berilganligini tasdiqlaydigan hujjat;

fitosanitariya sertifikat — karantin ostidagi mahsulotda o‘simliklar karantini obyektlari mavjud emasligini tasdiqlovchi xalqaro namunadagi hujjat;

ichki fitosanitariya sertifikat — O‘zbekiston Respublikasi hududida yuklash, saqlash, tashish va realizatsiya qilinadigan karantin ostidagi mahsulotda o‘simliklar karantini obyektlari mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjat;

reeksport fitosanitar sertifikat — respublikaga import qilingandan so‘ng boshqa davlatga eksport qilinadigan, shuningdek, respublika hududida saqlanadigan, qismlarga bo‘linadigan, birlashtiriladigan va qayta qadoqlanadigan karantin ostidagi mahsulotlarning o‘simliklar karantini obyektlari bilan zararlanmaganligini tasdiqlovchi xalqaro namunadagi hujjat;

transport birligini ochish dalolatnomasi — karantin ostidagi import mahsulotlarining karantin ruxsatnomasida belgilangan joyga yetib kelganligini tekshirib, transport birligini ochish va o‘simliklar karantini tekshiruvidan o‘tkazish uchun beriladigan hujjat;

o‘simliklar karantini ko‘rigi dalolatnomasi — transport birligini ochish dalolatnomasi berilgan karantin ostidagi mahsulotlarda o‘simliklar karantinidagi va boshqa zararli organizmlar mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjat;

O‘simliklar karantini obyekti (karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizm) — O‘zbekiston Respublikasi hududida mavjud bo‘lmagan yoki cheklangan tarzda mavjud bo‘lgan, tarqalishi katta iqtisodiy zarar keltirishi mumkin bo‘lgan va karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizmlarga qarshi kurashish obyekti hisoblangan zararli organizm;

fitosanitar nazorat — karantin ostidagi mahsulot va O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan o‘simlik va o‘simlik mahsulotlarini tekshirishda o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat inspektori tomonidan amalga oshiriladigan kompleks tadbirlar;

o‘simliklar karantiniga doir tadbirlar — o‘simliklar karantini davlat inspektori tomonidan karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizmlarning xorijiy mamlakatlardan kirib kelishi, shuningdek, respublikaning karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizmlar mavjud hududidan, ulardan xoli bo‘lgan hududlariga tarqalishi natijasida zarar yetkazilishi xavfining oldini olish, uni cheklash hamda bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar majmui;

O‘KHXX – O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha xalqaro konvensiya (RIM, 1951-yil 6-dekabr, 2019-yil 23-dekabrda O‘RQ-596-sonli Qonuni bilan Konvensiyaning anglashuv tomoni bo‘ldi) xalqaro hujjat;

FCHXS – Fitosanitariya choralari bo‘yicha xalqaro standartlar.

2. Karantin ostidagi mahsulotni olib kirish, olib chiqish, tranzit tarzida olib o‘tish hamda hududlararo tashishda davlat inspektori tomonidan fitosanitar nazoratdan o‘tkazishning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi hududini o‘simliklar karantinidagi zararli organizmlardan himoya qilish va o‘simliklar karantini sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 65-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-noyabrda 912-son qarori ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali shaxslar, transport vositalari va tovarlarni o‘tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom, “Karantin ostidagi mahsulotni olib kirish, olib chiqish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish, realizatsiya hamda yo‘q qilishga doir fitosanitariya talablari” (Adliya vazirligi ro‘yxati – 147, 2023-yil 7-fevral) hamda sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlari hamda karantin sohasini tartibga soluvchi FCHXSlardan iborat.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududini o‘simliklar karantinidagi zararli organizmlardan himoya qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 1-ilovasida “O‘zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan va uning tashqarisiga olib chiqiladigan o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar ro‘yxati”da keltirilgan karantin ostidagi mahsulotlar olib kirilishida, olib chiqilishida, tranzit tarzida olib o‘tilishida hamda hududlararo tashilishida fitosanitar nazorat o‘rnatiladi.

4. Karantin ostidagi mahsulotni olib kirish, olib chiqish va tranzit tarzida olib o‘tishda mahsulotni fitosanitariya nazoratidan Davlatlararo, Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF), Aeroport, Pochtamt va Daryo portidagi o‘simliklar karantini chegara maskan(punkt)lari (keyingi o‘rinlarda – O‘KCHM)da hamda hududlararo tashishda respublika ichidagi avtomobil yo‘llarida faoliyat yurituvchi davlat inspektori tomonidan fitosanitariya nazoratidan o‘tkaziladi.

5. O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan karantin ostidagi mahsulotga quyidagi fitosanitariya talablari qo‘yiladi:

karantin ostidagi mahsulot import qiluvchi davlatning fitosanitariya talablariga muvofiq bo‘lishi;

karantin ostidagi mahsulotdan tayyorlangan yog‘och taglik va yog‘och o‘ram (qoplama)lar, 6 mm va undan qalin qutilar (yashiklar)ni karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizmlarga qarshi kurashish bo‘yicha zararsizlantirish (fumigatsiya) bo‘linmalari tomonidan zararsizlantirish, shuningdek, ularda termo muhr qo‘yilgan bo‘lishi hamda karantin ostidagi mahsulot solingan qadoqlarning har biri mahsulot olib chiquvchi jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan markirovkalangan bo‘lishi.

6. Karantin ostidagi mahsulotni O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqishda quyidagilar talab etiladi:

olib chiqilishi rejalashtirilgan karantin ostidagi mahsulot O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilishi taqiqlangan karantin ostidagi mahsulotlar ro‘yxatiga kiritilmagan bo‘lishi;

O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan karantini ostidagi mahsulot yetishtirilgan hududda karantin holati e‘lon qilinmagan bo‘lishi;

har bir transport vositasi uchun ichki fitosanitariya sertifikatini hamda fitosanitariya sertifikatining asl nusxalari bilan hamda qo‘l yuklarida fitosanitariya sertifikatining asl nusxalari bilan ta‘minlangan bo‘lishi;

karantin ostidagi mahsulot xorijiy davlat uchun karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizmlardan xoli bo‘lishi;

karantin ostidagi mahsulot import qiluvchi davlatning fitosanitariya talablariga muvofiq bo‘lishi;

har bir transport birligi uchun ichki fitosanitariya sertifikatini bo‘lishi;

karantin ostidagi mahsulotni olib chiqish uchun foydalaniladigan transport vositalari (karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan va karantin ahamiyatiga ega bo‘lmagan zararli organizmlar tarqalmasligi uchun) to‘liq berkitilgan bo‘lishi.

7. O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan karantin ostidagi mahsulotga quyidagi fitosanitariya talablari qo‘yiladi:

karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan va karantin ahamiyatiga ega bo‘lmagan zararli organizmlardan xoli bo‘lishi;

O‘zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy davlatlardan olib kirilayotgan karantin ostidagi mahsulotni karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan va karantin ahamiyatiga ega bo‘lmagan zararli organizmlardan himoya qilishga doir maxsus fitosanitariya talablariga javob berishi;

karantin ostidagi mahsulotdan tayyorlangan yog‘och taglik va yog‘och o‘ram (qoplama)lar, 6 mm va undan qalin qutilar (yashiklar)ning barchasiga zararsizlantirilganlikni tasdiqlovchi termo muhr qo‘yilgan bo‘lishi hamda karantin ostidagi mahsulot eksport qiluvchi davlatlarning talablariga ko‘ra markirovkalangan bo‘lishi.

8. Karantin ostidagi mahsulotni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirishda quyidagilar talab etiladi:

karantin ruxsatnomasi, eksport qiluvchi mamlakatning o'simliklar karantini va ularni himoya qilish bo'yicha davlat organlari tomonidan beriladigan fitosanitariya sertifikatini yoki guvohnomasi mavjud bo'lishi;

o'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha davlat organlariga ega bo'lmagan xorijiy mamlakatlardan karantin ostidagi mahsulotni olib kirishga O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi (keyingi o'rinlarda – Karantin agentligi) tomonidan karantin ostidagi mahsulotning har bir turkumiga alohida beriladigan karantin ruxsatnomasi mavjud bo'lishi;

karantin ruxsatnomasida ko'rsatilgan karantin ostidagi mahsulot eksport qiluvchi davlatdan berilgan fitosanitariya sertifikatida ko'rsatilgan mahsulotga muvofiq bo'lishi;

respublikaga kiritilayotgan ekish materiallari (urug'liklar)ning navi va duragayi O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya qilingan qishloq xo'jaligi ekinlarining davlat ryestriga belgilangan tartibda kiritilgan bo'lishi;

olib kiriladigan karantin ostidagi mahsulot davlat chegara o'tkazish punktida hujjatli fitosanitariya nazoratidan, davlat chegara o'tkazish punktidan olib o'tilgan karantin ostidagi mahsulot bojxona rasmiylashtiriluvchi joyida yoki bojxona nazorati hududida ularni tushirish va bojxona identifikatsiya vositasini olib tashlash joyida davlat inspektori tomonidan mahsulotni belgilangan tartibda fitosanitariya nazorati (karantini ko'rigi)dan o'tkazilishi;

bojxona rasmiylashtiriluvini amalga oshirish uchun karantini ko'rigi dalolatnomasi talab etilishi.

9. Karantin ostidagi mahsulotni O'zbekiston Respublikasidan tranzit tarzida olib o'tishda quyidagilar talab etiladi:

karantin ostidagi mahsulotni tovar partiyalari uchun Karantin agentligi tomonidan tranzitga beriladigan karantin ruxsatnomasi;

eksport qiluvchi mamlakatning fitosanitariya sertifikatini yoki guvohnomasi;

karantin ostidagi mahsulotni tranzit tarzida O'zbekiston Respublikasi hududidan yopiq yoki izotermik, tashishga yaroqli va plombalangan vagonlarda, avtofurgonlarda, avtorefrejator yoki konteynerlarda olib o'tish.

10. O'zbekiston Respublikasida yetishtirilgan karantin ostidagi mahsulotni hududlararo tashishga quyidagilar talab etiladi:

respublika dalalarida yetishtirilgan karantin ostidagi mahsulotni hududlararo tashishda foydalaniladigan transport vositalari yukxonasining ustki qismi yopiq bo'lishi;

karantin ahamiyatiga ega bo'lgan va karantin ahamiyatiga ega bo'lmagan zararli organizmlar bilan zararlangan maydonlar yoki karantin e'lon qilingan hududlarda yetishtirilmagan bo'lishi;

500 kg va undan ortiq karantin ostidagi mahsulot yuklangan har bir transport vositasi uchun ichki fitosanitariya sertifikatini bilan ta'minlangan bo'lishi.

2-bob. O'simliklar karantini chegara maskan(punkt)ida davlat inspektori faoliyatini tashkil etish

11. Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda – hududiy boshqarmalar) davlat inspektorlariga ish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan shart-sharoit (*xizmat xonasi, planshet, mikroskop, dala sumkasi, kompyuter, printer va boshqalar*)ni yaratib beradi.

12. Davlat inspektori tomonidan karantin ostidagi mahsulotni fitosanitariya nazoratidan o‘tkazish uchun maxsus stol (*stol rangi oq bo‘lishi lozim*) bilan ta‘minlanishi kerak.

13. Zararlangan yoki fitosanitariya talablarga nomuvofiq bo‘lgan karantin ostidagi mahsulotlarni saqlash uchun maxsus joy ajratilgan bo‘lishi lozim.

14. O‘KCHMlarda yuridik va jismoniy shaxslarga ma‘lumot uchun sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar, olib kirilishi taqiqlangan karantin ostidagi mahsulotlar ro‘yxati va Karantin agentligining **ishonch telefon raqami** aks ettirilgan **axborot stendlari** bilan (*sharoitdan kelib chiqqan holda qo‘shimcha ravishda o‘simliklar karantiniga oid videoroliklar*) ta‘minlangan bo‘lishi lozim.

15. Davlat inspektori Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-iyundagi “O‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati inspektorlarining formal kiyim-boshlari namunalarini va farqlash belgilarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 489-sonli qarori talablariga muvofiq maxsus formal kiyim kiyish tartibiga, mehnat muhofazasi va texnik xavfsizlik qoidalariga, mehnat shartnomasiga, lavozim yo‘riqnomasiga, ichki mehnat tartib-qoidalariga, odo-axloq qoidalariga, Karantin agentligining korrupsiyaga qarshi kurash siyosatiga va gigiyena talablariga, Karantin agentligining boshqa ichki lokal hujjatlariga hamda boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga amal qiladi.

16. Davlat inspektori o‘zi faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston Respublikasi bilan chegaradosh davlatlar bilan chegara hududlarida, xalqaro pochta va aeroportlarda, temir yo‘l stansiyalarida, daryo portlarida hamda import yuk kelib tushadigan maskanlarda 3 km gacha joylashgan tashkilotlar, shaxsiy tomorqalar va transport birliklarida o‘simliklar karantini sohasida monitoring yuritadi.

17. O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan karantin ostidagi mahsulot davlat chegara maskanlarida davlat inspektori tomonidan nazoratdan o‘tkazilishi shart.

3-bob. O‘zbekiston Respublikasidan karantin ostidagi mahsulotni olib chiqishda fitosanitariya nazoratini o‘tkazish

18. O‘zbekiston Respublikasidan karantin ostidagi mahsulotni olib chiqishda (keyingi o‘rinlarda – eksport) talab etiladigan **fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar** (keyingi o‘rinlarda – arizachi) **tomonidan** fitosanitariya sertifikatini olish to‘g‘risida Karantin agentligining “e-Fitouz” avtomatlashtirilgan axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda – “e-Fitouz” AAT) orqali integratsiya qilingan “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda – “Yagona darcha” BAT) orqali belgilangan elektron shaklda ariza beriladi.

Eslatma: Tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport qilinayotgan sabzavotlar, mevalar, dukkakli, yong‘oq, uzum va poliz mahsulotlari, muzlatilgan, quritilgan sabzavot va mevalar (TIFTN kodlari bo‘yicha tovar kodi 07, 08, 0904, 1202) uchun to‘lov Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan amalga oshirilishi sababli ushbu mahsulotlardan to‘lov amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi hujjat talab qilinmaydi (Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-martdagi 175-son qarori).

19. Davlat inspektori arizachi tomonidan karantin ostidagi mahsulotning eksportiga talab etiladigan fitosanitariya sertifikatini olish uchun berilgan elektron arizani qabul qilib olish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

arizachi tomonidan karantin ostidagi mahsulotni eksporti uchun fitosanitariya sertifikatini olishga “Yagona darcha” BAT orqali berilgan murojaatini, ushbu BATga integratsiya qilingan Karantin agentligining “e-Fitouz” AAT orqali qabul qilib olish;

berilgan elektron arizaga muvofiq mahsulot yetishtirilgan hududdagi davlat inspektori tomonidan rasmiylashtirib berilgan ichki fitosanitariya sertifikati mavjudligini Karantin agentligining “e-Fitouz” AAT orqali elektron ko‘rish;

ichki fitosanitariya sertifikatida ko‘rsatilgan eksport qilinishi rejalashtirilgan karantin ostidagi mahsulot nomi bilan berilgan elektron buyurtmadagi mahsulotlar miqdori va nomlarini taqqoslash;

eksport qilinadigan karantin ostidagi mahsulotni xorijiy import qiluvchi davlatning fitosanitariya talablariga muvofiq yoki mahsulotni (*transport vositasining yukxonasini*) zararsizlantirish talab etilganda, zararsizlantirish (*fumigatsiya qilish*) dalolatnomasi mavjudligini Karantin agentligining “e-Fitouz” AAT orqali elektron ko‘rish.

Xorijiy import qiluvchi davlatning fitosanitariya talablari Karantin agentligining **karantin.uz** rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan.

20. Ichki fitosanitariya sertifikati (*mahsulot yetishtirilgan hududdagi tuman (shahar) davlat inspektori tomonidan rasmiylashtirib berilishi shart*) mavjud bo‘lmagan respublika hududida yetishtirilgan, fitosanitariya xavfi yuqori bo‘lgan karantin ostidagi mahsulotni eksport qilish uchun xalqaro fitosanitariya sertifikati rasmiylashtirib berilmaydi.

21. Ichki fitosanitariya sertifikati mavjud bo‘lgan, fitosanitariya nazoratidan o‘tkazib, ichki fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirib bergan tuman (shahar) davlat inspektori tomonidan transport vositasining yukxonasiga qo‘yilgan Karantin agentligining maxsus muhri buzilmagan hamda mahsulot berilgan arizaga muvofiq bo‘lgan taqdirda, ushbu karantin ostidagi mahsulot davlat inspektori tomonidan fitosanitariya nazoratidan o‘tkazilmasdan xalqaro namunadagi fitosanitariya sertifikati rasmiylashtirib beriladi.

22. Ichki fitosanitariya sertifikati mavjud bo‘lgan hamda transport vositasi yukxonasi muhrlanmagan eksport qilinayotgan karantin ostidagi mahsulotni fitosanitariya nazoratidan o‘tkazishda **davlat inspektori quyidagilarni amalga oshiradi:**

a) ichki fitosanitariya sertifikatida nomlari kiritilgan karantin ostidagi mahsulotlar nomlari bilan arizada ko‘rsatilgan eksport qilinishi rejalashtirilgan mahsulotlar nomlarini taqqoslaydi.

Ichki fitosanitariya sertifikatida quyidagilar qayd etilishi lozim:

hududiy boshqarma nomi;
mahsulot yetishtiruvchi (*saqlovchi*) yuridik yoki jismoniy shaxs nomi va manzili va INN raqami;
karantin ostidagi mahsulot nomi (*botanik, lotincha nomi qavs ichida*) va miqdori;
mahsulot yetishtirilgan joy nomi;
mahsulot yuklangan transport vositasi davlat raqami;
zararsizlantirish (fumigatsiya qilish) dalolatnomasi raqami va berilgan sanasi (*talab etilganda*);
davlat inspektori F.I.SH.;
berilgan sana.

Eslatma: tuman (shahar) davlat inspektori tomonidan ichki fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirib berishda, mahsulotning qadoqlarini, o'rama vositalarini ko'rikdan o'tkazish, ularda o'simliklar karantini obyektlari va boshqa zararli organizmlar mavjud emasligini, shuningdek, yukda turli xil o'simlik qoldiqlari yoki tuproq mavjud emasligini, ruxsat etilmagan mahsulotlar yo'qligi aniqlanadi, shuningdek, zaruriyat bo'lganda karantin ostidagi mahsulotni yuklashdan oldin transport vositalarining yukxonasini belgilangan tartibda zararsizlantirishini amalga oshirishi mumkin.

b) Karantin ostidagi mahsulotni import qiluvchi davlatning fitosanitariya talablariga muvofiqligini aniqlaydi;

v) karantin ostidagi mahsulot qadoqlarining markirovkalanganligini tekshiradi;

g) xalqaro savdoda tashiladigan barcha turdagi mahsulotni qadoqlash va tashish uchun mo'ljallangan yog'och materiallarini (*palletlar, poddonlar*) zararsizlantirish (*fumigatsiya yoki termik ishlov berish usuli bilan*) va ular zararsizlantirilganligini tasdiqlovchi termo muhr bosilganligini tekshiradi;

d) karantin ostidagi mahsulotda karantin ahamiyatiga ega bo'lgan zararli organizmlar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida yuklarni **vizual ko'rikdan o'tkazadi** hamda mahsulot fitosanitar toza (*import qiluvchi davlat fitosanitariya talablariga muvofiq*) deb topilganda fitosanitariya sertifikatini milliy qonunchilik hujjatlariga muvofiq **rasmiylashtiradi;**

import qiluvchi mamlakatning fitosanitariya talablarida qo'shimcha talablar mavjud bo'lsa, ularni fitosanitariya sertifikatida aks ettirilishini ta'minlaydi;

fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirib berishda mahsulot nomlari O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan va uning tashqarisiga olib chiqiladigan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar ro'yxati **TIF TN bo'yicha kodi bo'yicha nazoratdan o'tkaziladi;**

y) karantin ostidagi mahsulotda **karantin ahamiyatiga ega bo'lgan zararli organizmlar mavjudligi aniqlagan yoki shubha bo'lgan taqdirda** yoki import qiluvchi davlatning fitosanitariya talablarida qayd etilgan bo'lsa ushbu mahsulotdan **O'z DSt 12-430:2019** "Karantin ostidagi mahsulotlarni karantin tekshiruvi va ekspertizadan o'tkazish uchun namunalarni olish usullari va normalari" davlatlararo standarti asosida namunalar olib, ularni **fitosanitariya laboratoriyasiga ekspertizadan o'tkazish uchun jo'natishi shart, bunda:**

namunalar maxsus paketga joylashtirilib, pochta orqali fitosanitariya laboratoriyasiga yuboriladi hamda holat bo'yicha "e-Fitouz" AAT orqali Karantin agentligiga **24 soat ichida xabarnoma beriladi.**

Fitosanitar xavfi yuqori bo'lgan (PZR xulosasi talab etiladigan mahsulot) karantin ostidagi mahsulotning namunalari Markaziy fitosanitariya laboratoriyasidan ekspertizadan o'tkazilishi shart.

Eslatma: laboratoriya tekshiruvlari va tegishli ekspertiza o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar yuridik va jismoniy shaxslar hisobidan qoplanadi.

Fitosanitariya laboratoriyasi ekspertiza xulosasiga ko'ra olingan namuna fitosanitar toza (import qiluvchi davlatning fitosanitariya talablariga muvofiq) deb topilganda, xalqaro **fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirib beriladi;**

g) karantin ostidagi mahsulotni vizual karantin ko'rigidan o'tkazilganda yoki laboratoriya ekspertizasi xulosalariga asosan, karantin ostidagi mahsulotda karantin ahamiyatiga ega zararli organizmlar aniqlansa, davlat inspektori tomonidan fumigatsiya bo'linmasiga zararsizlantirish tadbirlari o'tkazish uchun talabnoma (*xabar*) beradi;

zararsizlantirish (*fumigatsiya*) bo'limi tomonidan belgilangan tartibda mahsulot va transport vositasini zararsizlantirish (*fumigatsiya*) yoki mahsulot egasi zararlangan mahsulotni zararsizlantirish bo'yicha o'simliklar karantiniga doir tadbirlar o'tkazilishini talab qiladi.

Eslatma: zararsizlantirish (*fumigatsiya*) yoki tozalash uchun tadbirkorlik subyekti Karantin agentligining "e-Fitouz" AAT orqali oferta shartnomasini tuzadi, bunda, barcha xarajatlar tadbirkorlik subyekti tomonidan qoplanadi.

d) karantin va boshqa xavfli zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlar bilan zararlangan karantin ostidagi mahsulotga nisbatan zararsizlantirish va tozalashning samarali tadbirlarini qo'llash imkoni bo'lmasa, ushbu mahsulot uchun fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirilib berilmaydi va davlat inspektori tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

holat yuzasidan dalolatnoma tuziladi va dalolatnomada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- mahsulot nomi, miqdori va qadoqlash turi;
- mahsulot eksport qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;
- mahsulotda aniqlangan zararli organizm turi va zararlanganlik darajasi;

mahsulot yetishtirilgan hudud nomi (viloyat, tuman/shahar, yerdan foydalanuvchining nomi);

mahsulot jo'natilgan joy (qadoqlash sexi, muzlatgich, omborxona va boshqalar) nomi hamda manzili;

tavsiya qilingan karantin chora-tadbirlari;

dalolatnomaning rasmiylashtirilgan sanasi va vaqti.

Ushbu dalolatnoma davlat inspektori tomonidan ikki nusxada tuzilib, bir nusxasi mahsulot egasiga beriladi hamda bir nusxasini o'zida qoldiradi, shuningdek, holat yuzasidan "e-Fitouz" AAT orqali **Karantin agentligiga 24 soat ichida xabarnoma beriladi.**

***Eslatma:** Karantin agentligining "e-Fitouz" AAT orqali berilgan xabarnoma Tashqi karantin bo'limi tomonidan ushbu xabarnoma asosida tegishli hududiy boshqarmalar (yoki mas'ul Bosh boshqarma)ni mahsulot yetishtirilgan hududlarda monitoring va dala nazorati o'tkazish bo'yicha xabardor qiladi. Mas'ul mansabdor shaxslar mahsulot yetishtirilgan joyga chiqib, tegishli (belgilangan) chora-tadbirlarni amalga oshirishi shart.*

Zararlangan karantin ostidagi mahsulot eksport qilinishi taqiqlanadi hamda fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirish rad etiladi.

4-bob. Fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirib berish

23. Eksport qilinayotgan karantin ostidagi mahsulot uchun fitosanitariya sertifikati tashqi karantin yo'nalishida faoliyat yurituvchi davlat inspektori tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

24. Davlat inspektori quyidagi fitosanitariya sertifikati berishda rioya etilishi majburiy bo'lgan talablar va shartlarga rioya qilinganligi yuzasidan o'rganadi:

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'simliklar karantini to'g'risidagi qonun va qonunosti hujjatlariga, jumladan karantin qoidalariga, shuningdek, fitosanitar talablarga rioya etilganligi;

davlat inspektori tomonidan o'z vakolati doirasida yuborilgan zarur fitosanitar talablar bajarilishi bo'yicha taqdimnomalarni bajarilganligi, o'simliklar karantini obyektlari aniqlanganda o'simliklar karantini qoidalariga muvofiq o'rnatilgan cheklashlar va ko'rsatmalarga rioya qilinganligi;

O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan karantin ostidagi mahsulot xalqaro fitosanitar talablarga, savdo shartnomalarida (bitimlarida) nazarda tutilgan fitosanitar shartlarga javob berishi va O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilishi mumkin bo'lmagan karantin ostidagi mahsulot ro'yxatiga kirmagan bo'lishi;

O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan karantin ostidagi mahsulot yetishtirilgan hududda karantin holati e'lon qilinmaganligi;

O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan karantin ostidagi mahsulotni import qiluvchi mamlakat hududiga O'zbekiston Respublikasi hududidan karantindagi zararli organizmlar kirib borish xavfi mavjud bo'lmaganligi;

fitosanitar sertifikatini berish natijasida harakatlarni bajarish va (yoki) muayyan faoliyatni amalga oshirish, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga yoki o‘simlik dunyosi obyektlariga hamda ularning yashash muhitiga haqiqatda xavf solmasligi.

Eslatma: O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan karantin ostidagi mahsulotni fumigatsiya qilish talab etilgan hollarda yuridik va jismoniy shaxslar fumigatsiya ishlarini o‘tkazish uchun zarur bino va inshootlar bilan ta‘minlaydilar.

25. Karantin ostidagi mahsulotga fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirib berishda davlat inspektori mahsulotni eksport qilishda import qiluvchi mamlakatning talablariga to‘laqonli rioya etilganligini o‘rganib chiqishi lozim.

26. Import qiluvchi mamlakatlarning fitosanitariya talablari bo‘yicha rasmiy ma‘lumotlar quyidagi manbalardan olinadi:

import qiluvchi mamlakatning O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha milliy tashkiloti (O‘KHMT) rasmiy veb-sayti (*elektron aloqa*) manzili, import qiluvchi mamlakat O‘KHMT vakili bilan bevosita rasmiy muloqot orqali;

O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha xalqaro konvensiyaning fitosanitariya portali – **www.ippc.int** orqali;

mahsulotlarni olib kirish uchun import qiluvchi mamlakatning O‘KHMT tomonidan beriladigan karantin ruxsatnomasi mavjud bo‘lsa, unda qayd etilgan talablar orqali;

o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha tegishli mintaqaviy tashkilotning ma‘lumotlar bazasi (*masalan, YEO‘ O‘KHT www.eppo.int, eppo.database.int*) orqali;

Karantin agentligining rasmiy veb-sayti (**www.karantin.uz**, **eksport tugmasi orqali**) orqali.

27. Karantin ostidagi mahsulotga fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirishda mahsulotlarni eksport/import qilishda ikki davlat o‘simliklar karantini bo‘yicha vakolatli organlari o‘rtasida kelishuvga erishilgan bayon/memorandumda qayd etilgan talablarga (*vakolatli organlari o‘rtasida kelishuv bo‘lmagan taqdirda umumiy asoslarga muvofiq amalga oshiriladi*) to‘laqonli rioya etilishi shart.

28. Arizachining “e-Fitouz” AAT orqali integratsiya qilingan “Yagona darcha” BAT orqali elektron shaklda berilgan arizasiga muvofiq fitosanitar toza karantin ostidagi mahsulotga fitosanitariya sertifikati rasmiylashtirib beriladi.

Fitosanitariya sertifikatida quyidagi ma‘lumotlar qayd etiladi:

hujjat nomi (eksport yoki reeksport);

fitosanitariya sertifikatining noyob identifikatsion tartib raqami avtomatik ravishda qo‘yiladi;

eksportyor va uning manzili;

yuk qabul qiluvchi va uning manzili;

kimga: o‘simliklar karantini tashkilotiga (davlat);

olib kirilishi qayd etilgan punkt nomi;

mahsulot ishlab chiqarilgan joy manzili nomi;

transportda tashishning qayd etilgan usuli - ushbu bandeda transport vositasi (vagon)ning davlat raqami kiritiladi;

mahsulotning nomi, o‘simlikning qayd etilgan botanik nomi va miqdori;

joy soni va qadoqning tavsifi (alohida belgisi).

Ushbu sertifikat bilan yuqorida qayd etilgan o'simliklar, o'simlik mahsulotlari yoki boshqa karantin ostidagi mahsulot, tegishli rasmiy tartib asosida tekshirilib va/yoki tahlil qilinib, import qiluvchi tomonning ro'yxatidagi karantin ostidagi zararli organizmlardan xoli deb topilib, import qilinayotgan davlatning amaldagi fitosanitariya talablariga javob berishi tasdiqlanadi.

Qo'shimcha deklaratsiyaga **Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi komissiya kengashining 30.11.2016-yildagi 157-sonli qaroriga muvofiq mahsulot fitosanitar toza hududda yetishtirilganligi hamda karantin ahamiyatiga ega bo'lgan zararli organizmlardan xoli ekanligi ko'rsatiladi.**

Davlat inspektori barcha ma'lumotlarni to'liq kiritganidan so'ng ma'lumotlar elektron tizimga saqlanadi va fitosanitariya sertifikati **asl nusxasi blankasiga** ma'lumotlar chop etiladi hamda davlat inspektori tomonidan imzolanib, murojaatchiga berib yuboriladi.

Ma'lumot uchun, fitosanitariya sertifikati 12-sonli FCHXS talablariga muvofiq, rus (MDH davlatlari) yoki ingliz (qolgan barcha davlatlarga) tillarida rasmiylashtiriladi.

29. Karantin ostidagi mahsulotni **qo'l yuki yoki bagajlarda eksport qilinishida fitosanitar nazorati va fitosanitariya sertifikati rasmiylashtirish umumiy asoslarga muvofiq amalga oshiriladi.**

Eslatma: 500 kg dan ortiq yuk orilgan bir transport birligiga ichki fitosanitariya sertifikati talab etiladi.

30. Respublikaga import qilingandan so'ng boshqa davlatga eksport qilinadigan, shuningdek, respublika hududida saqlanadigan, qismlarga bo'linadigan, birlashtiriladigan va qayta qadoqlanadigan karantin ostidagi mahsulot umumiy asoslarga ko'ra fitosanitariya nazoratidan o'tkaziladi hamda **reeksport fitosanitariya sertifikati rasmiylashtirib beriladi.**

Reeksport fitosanitariya sertifikati rasmiylashtirib berilishida davlat inspektori eksportyor davlatining fitosanitariya sertifikatining asl nusxasi yoki uning tasdiqlangan nusxasini rasmiylashtirilgan reeksport fitosanitariya sertifikatiga ilova qilishi shart (reeksport fitosanitariya sertifikatida eksportyor davlatining fitosanitariya sertifikatining raqami va berilgan sanasi ko'rsatiladi).

31. Fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirish uchun berilgan ariza rad etilganda, arizachiga rad etish to'g'risidagi asoslangan sabablar ko'rsatilishi shart.

32. Fitosanitariya sertifikati rasmiylashtirib berilgan karantin ostidagi mahsulotni davlat chegarasidan olib o'tishda davlatlararo O'KCHM davlat inspektori tomonidan karantin ostidagi mahsulot uchun berilgan fitosanitariya sertifikati asl nusxasi mavjudligi fitosanitariya nazoratidan o'tkaziladi hamda Karantin agentligining "e-Fitouz" AATdagi O'KCHM jurnaliga respublika hududidan chiqib ketayotgan mahsulot to'g'risidagi ma'lumotlar elektron reyestrda kiritiladi.

Ma'lumot uchun, "e-Tranzit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi (keyingi o'rinlarda - AAT) ishga tushganidan so'ng respublika hududidan chiqib ketayotgan mahsulot to'g'risidagi ma'lumotlar "e-Tranzit" AATga mahsulotni olib chiqishdan oldin kiritiladi.

5-bob. O‘zbekiston Respublikasiga karantin ostidagi mahsulotni olib kirishda va tranzit tarzida olib o‘tishda fitosanitariya nazoratini o‘tkazish

1-§. Karantin ostidagi mahsulotni olib kirishda va tranzit tarzida olib o‘tishda Davlatlararo O‘KCHMda davlat inspektorning vazifalari

33. Karantin ostidagi mahsulotni olib kirishda Davlatlararo O‘KCHM davlat inspektorining fitosanitar nazorat o‘tkazishdagi vazifalari quyidagilardan iborat:

karantin ostidagi mahsulotni olib kirishda **hujjatli fitosanitariya nazoratini amalga oshirish;**

transport vositasining tashqi qismi va muhrlanmagan boshqa karantin ostidagi (*ekish materiallari, urug‘lik, ko‘chat va boshqa*) mahsulot olib kirishi mumkin bo‘lgan joylarni ko‘rikdan o‘tkazish;

O‘zbekiston Respublikasi hududini xorijiy davlatlardan o‘simliklar karantini obyektlari kirib kelishidan himoya qilish;

karantin ostidagi mahsulotni tashishda o‘simliklar karantini bo‘yicha belgilangan qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish;

eksportyor davlatning fitosanitariya sertifikatini va karantin ruxsatnomasidagi mahsulotning nomi, turi bilan mos kelishi, tadbirkorlik subyektlari (*eksportyor va importyor*) nomi mos kelishi, hujjatlarning amal qilish muddati, fitosanitariya sertifikatining asl nusxasi ekanligini tekshirish;

karantin ostidagi mahsulotni xalqaro tashishda amaldagi qonunchilik hujjatlari talablarining so‘zsiz bajarilishini ta‘minlash;

o‘simliklar karantini obyektlari aniqlanganda yoki fitosanitariya talab va qoidalariga rioya qilmasdan karantin ostidagi mahsulotni olib kirilgan karantin ostidagi mahsulotni vaqtincha ushlab turish, olib qo‘yish, qaytarib yuborish yoki yo‘q qilish bo‘yicha o‘simliklar karantiniga doir tadbirlarni amalga oshirish.

Ma‘lumot uchun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi boshlig‘ining 2019-yil 14-oktabrdagi 8-son buyrug‘iga ilova bilan tasdiqlangan “Karantin ostidagi mahsulotni olib qo‘yish, qaytarib yuborish va yo‘q qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom” (2019-yil 31-oktabr, ro‘yxat raqami 3191).

34. O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan va tranzit tarzida olib o‘tilayotgan karantin ostidagi mahsulot yuklangan transport vositalari davlat inspektori tomonidan fitosanitariya nazoratidan o‘tkaziladi, bunda davlat inspektori tomonidan transport vositasining tashqi qismi va muhrlanmagan boshqa karantin ostidagi mahsulot olib kirishi mumkin bo‘lgan joylari karantin ko‘rigidan o‘tkazilib, **hujjatli tekshiruv amalga oshiriladi.**

35. **Karantin ostidagi mahsulotni tranzit tarzida O‘zbekiston Respublikasi hududidan** yopiq yoki izotermik, tashishga yaroqli va plombalangan vagonlarda, avtofurgonlarda, avtorefrejerator yoki konteynerlarda olib o‘tilishiga Karantin agentligi tomonidan tranzitga berilgan karantin ruxsatnomasi hamda eksport qiluvchi mamlakatning fitosanitar sertifikatini yoki guvohnomasining asl nusxasi bo‘lganda **ruxsat etiladi.**

Tranzit olib o'tishga ruxsat etilgan karantin ostidagi mahsulot yuklangan transport vositasi **kirib kelgan** Davlatlararo O'KCHM davlat inspektori Karantin agentligining "e-Fitouz" AAT orqali O'KCHM jurnaliga barcha ma'lumotlarni kiritish orqali tranzit karantin ruxsatnomasida belgilangan manzil bo'yicha yuk chiqib ketishi mo'ljallangan Davlatlararo O'KCHM davlat inspektorini "e-Fitouz" AAT orqali ("e-Tranzit" AAT ishga tushganidan so'ng ma'lumotlar "e-Tranzit" AATga kiritiladi) xabardor qiladi.

Ma'lumot uchun, Karantin agentligining "e-Fitouz" AAT O'KCHM jurnaliga tranzit tarzida olib o'tilayotgan karantin ostidagi mahsulot haqidagi ma'lumot kiritilgandan so'ng ("e-Tranzit" AAT ishga tushganidan so'ng ma'lumotlar "e-Tranzit" AATga kiritiladi) 72 soat ichida, ushbu transport vositasi chiqish O'KCHMga yetib bormasa, "e-Fitouz" AATning O'KCHM jurnalidagi ma'lumot qizil rangga o'zgarib, ushbu mahsulot chiqib ketmaganligini bildiradi. Bunday holda ushbu mahsulot to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish uchun yuk egasi yoki tegishli bojxona organlaridan ma'lumot olinib, tegishli choralar ko'riladi.

Tranzit olib o'tishga ruxsat etilgan karantin ostidagi mahsulot yuklangan transport vositasi **chiqib ketish** yo'nalishidagi Davlatlararo O'KCHM davlat inspektori tranzit tarzida chiqib ketayotgan karantin ostidagi mahsulot haqidagi ma'lumotlarni "e-Fitouz" AATning O'KCHM jurnaliga kiritadi ("e-Tranzit" AAT to'liq ishga tushganidan so'ng ma'lumotlar "e-Tranzit" AATga kiritiladi).

Eslatma: tranzit karantin ruxsatnomasini O'KCHM davlat inspektori yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Karantin agentligining "e-Fitouz" AAT orqali bergan murojaati (yuridik va jismoniy shaxslar oferta shartnomasi tuzadi, tranzit karantin ruxsatnomasi xarajatlar qoplanadi) asosida rasmiylashtirib berishi mumkin.

2-§. Karantin ostidagi mahsulot yuklangan transport vositalarini Davlatlararo O'KCHMda fitosanitariya nazoratidan o'tkazish

36. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilayotgan hamda tranzit tarzida olib o'tilayotgan karantin ostidagi mahsulotni fitosanitar nazoratidan o'tkazish uchun davlat inspektori quyidagilarni taqdim etishlari talab etiladi:

karantin ruxsatnomasi (*nusxasi yoki ruxsatnomaning ro'yxatga olingan raqami*);
eksport qiluvchi davlat tomonidan berilgan fitosanitariya sertifikatini yoki guvohnomasining asl nusxasi.

37. Hujjatlarni tekshirish jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) eksportyor davlat fitosanitariya sertifikatining haqqoniyligini ko'zdan kechirish, shuningdek, Karantin agentligining "e-Fitouz" AATga integratsiya qilingan xorijiy mamlakatlarning elektron bazasi orqali solishtirish.

Shuningdek, mahsulot nomlari O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan va uning tashqarisiga olib chiqiladigan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar ro'yxati **TIF TN kodi bo'yicha nazoratdan o'tkaziladi.**

b) eksportyor davlat fitosanitariya sertifikatining shakli va tarkibiy qismi Fitosanitariya choralari bo'yicha xalqaro 12-standartga muvofiq tarzda (sertifikatdagi barcha ma'lumotlar to'ldirilgan bo'lishi) rasmiylashtirilgan va uning asl nusxada bo'lishi;

v) fitosanitariya sertifikatining barcha bandlari to'ldirilganligi, uning imzo va muhr bosilganligi hamda o'simliklarning ilmiy (botanik) nomlanishi lotin tilida yozilganligi;

g) eksportyor davlatning fitosanitariya sertifikati va karantin ruxsatnomasidagi mahsulot nomi, turi bilan mos kelishini tekshirish.

1) Eksportyor davlat tomonidan berilgan fitosanitariya sertifikatining **haqiqiy yoki haqiqiy emasligi quyidagicha aniqlanadi:**

a) fitosanitariya sertifikatida maxsus ajratuvchi belgilar bo'lmasa;

b) fitosanitariya sertifikati to'liq rasmiylashtirilmagan bo'lsa;

v) fitosanitariya sertifikati karantin ostidagi mahsulot partiyasiga, uni eksport qilayotgan mamlakat hududidan chiqib ketganidan so'ng berilgan bo'lsa;

g) fitosanitariya sertifikatining amal qilish muddati (FS berilgan vaqtdan boshlab) tugagan bo'lsa, agar qonunchilik hujjatlarida muddat talabi belgilangan bo'lsa;

d) fitosanitariya sertifikatida transport vositasining turi, nomi va (yoki) tartib raqami qayd qilinmagan bo'lsa;

y) fitosanitariya sertifikatiga vakolatli organ yoki shaxs tomonidan tasdiqlanmagan **o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilgan** bo'lsa;

k) fitosanitariya sertifikati haqiqiy emasligi aniq ko'rinsa yoki isbotlansa;

j) fitosanitariya sertifikatidagi yozuv o'chirilib, soxta yozuvlar kiritilganligi aniqlansa;

z) import qilinishi taqiqlangan karantin ostidagi mahsulot partiyalariga fitosanitariya sertifikati rasmiylashtirilgan hollarda, taqiq qo'yilgan sanadan keyin rasmiylashtirilgan bo'lsa (*taqiq belgilangan muayyan muddat davomida rasmiylashtirilsa*).

Karantin ostidagi mahsulot uchun rasmiylashtirilgan fitosanitariya sertifikati va karantin ruxsatnomasining asli ekanligi "Yagona darcha" BAT, www.karantin.uz veb-sayti va maxsus "QR-kod" seriyasi orqali tekshiriladi.

Eksportyor davlat tomonidan berilgan fitosanitariya sertifikati haqiqiy emas deb topilganda mahsulot olib kirilishi taqiqlanadi hamda holat yuzasidan Karantin agentligining "e-Fitouz" AATga 24 soat ichida xabarnoma yuboriladi.

2). Eksport qiluvchi mamlakatning fitosanitariya sertifikatida qayd etilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar:

a) hujjat nomi (eksport yoki reeksport);

b) fitosanitariya sertifikatining identifikatsion tartib raqami;

v) fitosanitariya sertifikati berilgan mamlakat nomi, shuningdek, uni rasmiylashtirib bergan o'simliklar karantini bo'yicha tashkilot nomi (*mahsulotning kelib chiqishi/eksport qiluvchi mamlakat nomi*);

g) fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirgan o'simliklar karantini bo'yicha tashkilot muhrining mavjudligi;

d) import qiluvchi mamlakat nomi (belgilangan mamlakat);

y) yetkazish manzili (*birinchi yetkazish manzili/o'simliklar karantini chegara maskani*);

yo) eksport qiluvchi tashkilot va uning manzili;

j) qabul qiluvchi va uning manzili;

- z) tasdiqlash bayonoti (*matni*);
- i) yuk tavsifi, uni aniqlashtirish imkonini beruvchi, (*kelib chiqishi, mahsulot nomi va miqdori, ilmiy (botanik) nomi, alohida belgilar*);
- y) tashish usuli (*transport vositasi*);
- k) qo'shimcha deklaratsiya;
- l) zararsizlantirish va/yoki dezinfeksiya qilish;
- m) qo'shimcha ma'lumotlar;
- n) vakolatli, mas'ul xodimning familiyasi, fitosanitariya sertifikatini tuzilgan sana, imzo, ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlovchi muhr.

3). Eksportyor davlatning fitosanitariya sertifikatini va karantin ruxsatnomasidagi mahsulotning nomi, turi bilan mos kelishi quyidagicha aniqlanadi:

mahsulot turlari, materiallar yoki hujjatda keltirilgan boshqa obyektlar fitosanitariya sertifikatida qayd etilgani bilan mos kelishi;

yuklarning yaxlitligini va haqiqiylikini ko'rib chiqish, yukni kuzatib boruvchi hujjatlarda yuk tavsifi aniq berilganligini tekshirish;

hujjatlarni mos kelishini, aniqligini tekshirish jarayonida o'simlik, o'simlik mahsuloti yoki boshqa karantin ostidagi mahsulot va ekish materiallaridan iborat yuklar nomi, ilmiy nomlanishi, fitosanitariya sertifikatida berilgan ma'lumotlar bilan muvofiq kelishi yoki kelmasligini tekshirish;

yukning yaxlitligini tekshirish jarayonida, uni aniqlash, aniq turini ajratish, yuk hajmi hujjatlarda berilgan ma'lumot bilan mos kelishini tekshirish orqali amalga oshiriladi.

38. Fitosanitariya sertifikatining faks yoki elektron pochta orqali jo'natilgan nusxalari o'z-o'zidan haqiqiy hisoblanmaydi va ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

Fitosanitariya sertifikatida kamchilik mavjudligi aniqlansa, ma'lumotlar noaniq yozilgan bo'lsa yoki sertifikat xatoliklar bilan to'ldirilgan holatlar kuzatilsa, shuningdek, fitosanitariya sertifikatining qalbakiyligini, belgilangan talablarga muvofiq emasligi aniqlangan yoki karantin ostidagi mahsulotda o'simliklar karantini obyektlari mavjudligi to'g'risida shubha bo'lgan taqdirda, ushbu karantin ostidagi mahsulot o'simliklar karantini tegishli chegara punktida **vaqtincha ushlab turiladi** va mazkur yo'riqnomaning **1-ilovasiga muvofiq** shaklda ikki nusxada dalolatnoma tuzilib, dalolatnomaning bir nusxasi karantin ostidagi mahsulotning egasiga (*uning vakili yoki yukni qabul qilib oluvchi, tashuvchiga*) beriladi, ikkinchi nusxasi davlat inspektorida qoladi.

Davlat inspektori bu haqda Karantin agentligining "e-Fitouz" AAT orqali **24 soat ichida xabarnoma beradi** hamda davlat inspektori tomonidan vakolati doirasida belgilangan tartibda huquqbuzar shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq vakolati doirasida ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiradi va qonuniy chora ko'rish uchun fuqarolarga nisbatan tuzilgan ma'muriy bayonnoma tegishlilik bo'yicha mansabdor shaxs (hududiy bo'linma rahbari)ga, mansabdor shaxs fuqarolarga nisbatan tuzilgan ma'muriy bayonnoma (bu masalada hududiy boshqarmaning ma'muriy amaliyot bo'yicha mutaxassisi bilan maslahatlashiladi) tegishli sudga hujjatlarni yo'naltirad (asos MJtKning 108, 245, 268-5 va boshqa tegishli moddalari).

39. Transport vositasini karantin ko‘rigidan o‘tkazish jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

transport vositasining tashqi qismi va muhrlanmagan boshqa karantin ostidagi (*ekish materiallari, urug‘lik, ko‘chat va boshqa*) mahsulotlar olib kirishi mumkin bo‘lgan joylari, yashirin ravishda ushbu mahsulotlar bor yoki yo‘qligi bo‘yicha karantin ko‘rigidan o‘tkaziladi, bunda:

transport vositasining tashqi qismi va muhrlanmagan yukxona hamda mahsulotlar olib kirishi mumkin bo‘lgan boshqa joylar ko‘zdan kechiriladi;

transport vositasining haydovchi kabinasi ko‘zdan kechiriladi.

Transport vositasini karantin ko‘rigidan o‘tkazishda o‘simliklar karantini sohasidagi “detektor — xizmat it”lari hamda kinologlar mavjud bo‘lganda, ularning xizmatidan foydalaniladi.

3-§. Fitosanitariya nazoratini o‘tkazish natijasiga ko‘ra qaror qabul qilish

40. Olib kirilayotgan va tranzit tarzida olib o‘tilayotgan karantin ostidagi mahsulot fitosanitariya qoida va talablariga muvofiq deb topilganda, ya’ni olib kirish yoki tranzit tarzida olib o‘tishga ruxsat beruvchi karantin ruxsatnomasi va eksportyor davlat tomonidan berilgan fitosanitariya sertifikat (*tegishli hujjatlar*) mavjud bo‘lgan hamda mahsulot o‘simliklar karantini obyektlaridan xoli bo‘lgan taqdirda:

Davlatlararo O‘KCHMda “Yagona qayd varaqasi” davlat inspektori shaxsiy imzosi va maskanga berilgan muhr bilan tasdiqlangandan so‘ng mahsulot respublika hududiga kiritilishiga ruxsat beriladi (*asos: VMning 2019-yil 18-noyabrdagi 912-son qarori*).

Bunda, fitosanitariya sertifikatiga kirishga ruxsat etilganligi bo‘yicha muhr va davlat inspektori imzo qo‘yadi, sertifikat skaner qilinib, Karantin agentligining “e-Fitouz” AATdagi O‘KCHM jurnaliga mahsulot respublika hududiga kiritilganligi bo‘yicha ma’lumotlarni elektron ryestrga kiritib boradi (“e-Tranzit” AAT ishga tushganidan so‘ng ma’lumotlar “e-Tranzit” AATga kiritiladi).

Eslatma: chegara puktidagi davlat inspektori karantin ruxsatnomasida belgilangan manzildagi davlat inspektorini mahsulot yetib borishi to‘g‘risida Karantin agentligining “e-Fitouz” AAT orqali (O‘KCHM jurnali) xabardor qiladi.

41. Olib kirilayotgan hamda tranzit tarzida olib o‘tilayotgan karantin ostidagi mahsulotda eksportyor davlatning fitosanitariya sertifikat qalbakilashtirilganligi yoki karantin ruxsatnomasi muddati o‘tgan (*mavjud bo‘lmagan*), shuningdek, qonunchilikda belgilangan talablarning buzilishi holatlari aniqlangan taqdirda, yuk egasi yoki yuk tashuvchi (*haydovchi*)ga nisbatan davlat inspektori tomonidan vakolati doirasida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksiga muvofiq vakolati doirasida ma’muriy bayonnoma rasmiylashtiriladi va hujjatlar qonuniy chora ko‘rish uchun tegishlilik bo‘yicha mansabdor shaxs (hududiy boshqarma rahbari)ga yoki tegishli sudga yo‘naltiriladi (*asos MJtKning 108, 245, 268-5 va boshqa tegishli moddalari*).

Holat yuzasidan Karantin agentligining “e-Fitouz” AAT orqali O‘simliklar karantini va himoyasi agentligiga **24 soat ichida xabarnoma beriladi.**

42. Olib kirilayotgan va tranzit tarzida olib o'tilayotgan karantin ostidagi mahsulot fitosanitariya qoida va talablariga nomuvofiq deb topilganda, ya'ni olib kirish yoki tranzit tarzida olib o'tishga ruxsat beruvchi karantin ruxsatnomasi va eksportyor davlat tomonidan berilgan fitosanitariya sertifikati (tegishli hujjatlar) mavjud bo'lmagan, shuningdek, o'simliklar karantin ahamiyatiga ega bo'lgan zararli organizmlar bilan zararlangan karantin ostidagi mahsulot tegishli tartibda olib qo'yish, qaytarib yuborish va yo'q qilish choralari ko'riladi.

Ma'lumot uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi boshlig'ining 2019-yil 14-oktabrdagi 8-son buyrug'iga ilova bilan tasdiqlangan "Karantin ostidagi mahsulotni olib qo'yish, qaytarib yuborish va yo'q qilish tartibi to'g'risidagi nizom" (2019-yil 31-oktabr, ro'yxat raqami 3191).

Fitosanitariya nazoratini o'tkazish natijasida karantin ostidagi mahsulot fitosanitariya qoida va talablariga nomuvofiq deb topilgan vaqtdan boshlab 24 soat ichida "e-Fitouz" AAT orqali Karantin agentligiga **24 soat ichida** xabarnoma beradi hamda quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

- karantin ostidagi mahsulot yuklangan transport vositasi vaqtinchalik to'xtatiladi;
- karantin ostidagi mahsulot olib qo'yiladi;
- karantin ostidagi mahsulot zararsizlantiriladi;
- karantin ostidagi mahsulot eksportyor davlatga qaytarib yuboriladi;
- karantin ostidagi mahsulot yo'q qilinadi.

1). Karantin ostidagi mahsulot yuklangan transport vositasi quyidagi holatlarda vaqtinchalik to'xtatiladi:

- yashirin tarzda karantin ostidagi mahsulot olib kirilayotganligi aniqlanganda;
- karantin ostidagi mahsulotda o'simliklar karantini obyektlari aniqlanganda;

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi taqiqlangan ekish materiallari va mahsulotlar aniqlanganda;

karantin ostidagi mahsulotning tegishli hujjatlari (*karantin ruxsatnomasi talab etiladigan o'simliklar va mahsulotlar uchun karantin ruxsatnomasi, xorijiy mamlakatning vakolatli davlat organlari tomonidan beriladigan fitosanitar sertifikati yoki guvohnomasi*) mavjud bo'lmaganda.

a) Transport vositasini **vaqtinchalik to'xtatish** vaqtida davlat inspektori tomonidan mazkur yo'riqnomaning **1-ilovasiga muvofiq** shaklda ikki nusxada dalolatnoma tuziladi.

Dalolatnomaning bir nusxasi karantin ostidagi mahsulotning egasiga (*uning vakili yoki yukni qabul qilib oluvchi, tashuvchiga*) beriladi, ikkinchi nusxasi davlat inspektorida qoladi;

b) dalolatnoma tuzilayotgan vaqtning o'zida mahsulotga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlar amalga oshirilgunga qadar, davlat inspektori tomonidan uni saqlab turishga doir choralar ko'riladi;

v) karantin ostidagi mahsulotni tegishli hujjatlari mavjud bo'lmagan hollarda, davlat inspektori tomonidan tuzilayotgan dalolatnomada karantin ostidagi mahsulotning egasiga **ikki kun muddat** ichida tegishli hujjatlarni taqdim etishi ko'rsatib o'tiladi;

g) tegishli hujjatlar taqdim qilingan taqdirda davlat inspektorining ko'rsatmasiga asosan yuk egasiga (*uning vakili yoki yukni qabul qilib oluvchi, tashuvchiga*) zudlik bilan qaytarib beriladi.

2). Quyidagi hollarda karantin ostidagi mahsulot olib qo'yiladi:

transport vositasi muhrlanmagan qismlarida yashirin tarzda karantin ostidagi mahsulot aniqlanganda;

karantin ostidagi mahsulotda o'simliklar karantini obyektlari aniqlanganda;

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi taqiqlangan ekish materiallari va mahsulotlar aniqlanganda;

karantin ostidagi mahsulotning tegishli hujjatlari (*karantin ruxsatnomasi talab etiladigan o'simliklar va mahsulotlar uchun karantin ruxsatnomasi, xorijiy mamlakatning vakolatli davlat organlari tomonidan beriladigan fitosanitar sertifikat yoki guvohnomasi*) mavjud bo'lmaganda.

a) Karantin ostidagi mahsulotni **olib qo'yish** to'g'risida davlat inspektori tomonidan mazkur yo'riqnomaning **2-ilovasiga muvofiq** shaklda ikki nusxada dalolatnoma tuziladi.

Dalolatnomaning bir nusxasi karantin ostidagi mahsulotning egasiga (*uning vakili yoki yukni qabul qilib oluvchi, tashuvchiga*) beriladi, ikkinchi nusxasi davlat inspektorida qoladi;

b) dalolatnoma tuzilayotgan vaqtning o'zida mahsulotga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlar amalga oshirilgunga qadar, davlat inspektori tomonidan uni saqlab turishga doir choralar ko'riladi;

v) davlat inspektori tomonidan olib qo'yilgan karantin ostidagi mahsulotdan namunalar olinadi va ular laboratoriya ekspertizasidan o'tkazish uchun tegishli laboratoriyaga yuboriladi;

g) karantin ostidagi mahsulotni tegishli hujjatlari mavjud bo'lmagan hollarda, davlat inspektori tomonidan tuzilayotgan dalolatnomada karantin ostidagi mahsulotning egasiga **ikki kun muddat** ichida tegishli hujjatlarni taqdim etishi ko'rsatib o'tiladi;

d) olib qo'yilgan karantin ostidagi mahsulotni tegishli hujjatlar taqdim qilinganda va/yoki laboratoriya ekspertizasi xulosasiga ko'ra mahsulotda o'simliklar karantini obyektlari mavjud bo'lmagan taqdirda davlat inspektorining ko'rsatmasiga asosan yuk egasiga (*uning vakili yoki yukni qabul qilib oluvchi, tashuvchiga*) zudlik bilan qaytarib beriladi.

3). Karantin ostidagi mahsulotda o'simliklar karantini obyektlari aniqlanganda mahsulotni belgilangan tartibda zararsizlantirish (fumigatsiya qilish).

Bunda, davlat inspektori yuk egasiga mahsulot o'simliklar karantini obyektlari bilan zararlanganligini ma'lum qiladi va hududiy boshqarmaning fumigatsiya bo'limidan fumigatorlarni mahsulotni zararsizlantirish (fumigatsiya qilish) uchun chaqiradi.

Fumigator yukda aniqlangan o'simliklar karantini obyektlarini yo'q qiluvchi kimyoviy preparatlar bilan ishlov beradi va yuk egasiga shu haqda dalolatnoma rasmiylashtirib beradi.

Eslatma: zararlangan mahsulotlarni zararsizlantirish (fumigatsiya qilish) uchun tadbirkorlik subyekti Karantin agentligining "e-Fitouz" AAT orqali oferta shartnomasi

tuzadi va zararsizlantirish (fumigatsiya qilish) bilan bog‘liq barcha xarajatlar tadbirkorlik subyekti tomonidan qoplanadi.

Mahsulot zararsizlantirilgandan so‘ng davlat inspektorining ko‘rsatmasiga asosan yuk egasiga (uning vakili yoki yukni qabul qilib oluvchi, tashuvchiga) qaytarib beriladi.

4). Quyidagi hollarda karantin ostidagi mahsulot eksportyor davlatga yuk egasiga (uning vakili yoki yukni qabul qilib oluvchi, tashuvchiga) qaytarib yuboriladi:

karantin ostidagi mahsulotda o‘simliklar karantini obyektlari aniqlanganda;

O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi taqiqlangan ekish materiallari va mahsulotlari aniqlanganda;

karantin ostidagi mahsulotning tegishli hujjatlari (karantin ruxsatnomasi talab etiladigan o‘simliklar va mahsulotlar uchun karantin ruxsatnomasi, xorijiy mamlakatning vakolatli davlat organlari tomonidan beriladigan fitosanitar sertifikat yoki guvohnomasi) mavjud bo‘lmaganda;

fitosanitariya sertifikat yoki karantin ruxsatnomasi haqiqiy emas (yoki amal qilish muddati tugagan) deb topilganda;

karantin ostidagi mahsulotning berilgan hujjatlarga mos kelmasligi aniqlanmagan holatlarda;

karantin ruxsatnomasida ko‘rsatilgan karantin ostidagi mahsulot bilan fitosanitariya sertifikat yoki o‘rtasida mahsulotning nomi va hajmida tafovut bo‘lganda;

mahsulot belgilangan fitosanitar talablariga mos kelmaganda;

zararlangan mahsulotni zararsizlantirish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda yoki zararsizlantirishning samarali usullari mavjud bo‘lmaganda.

a) Karantin ostidagi mahsulotni qaytarib yuborish uchun davlat inspektori tomonidan mazkur yo‘riqnomaning 3-ilovasiga muvofiq shaklda qaytarib yuborish to‘g‘risida ikki nusxada dalolatnoma tuziladi. Qaytarib yuborish to‘g‘risidagi dalolatnomaning bir nusxasi karantin ostidagi mahsulotning egasiga (uning vakili yoki yukni qabul qilib oluvchi, tashuvchiga) beriladi, ikkinchisi nusxa esa davlat inspektorida qoladi;

b) davlat inspektori yukka tegishli bo‘lgan hujjatlarga yoki ularni kuzatib boruvchi hujjatga (hisob varaqasi va h.k.) olib kirish taqiqlanganini belgilovchi muhr bosadi va uni tasdiqlash uchun imzo chekadi.

Masalan, “IMPORT TAQIQLANADI/REJECTED”.

Eslatma! Avtotransport vositalarining nazorat tartib-taomillaridan o‘tish vaqti 72 soatdan ortiq bo‘lmasligi lozim.

5). Quyidagi hollarda karantin ostidagi mahsulot yo‘q qilinadi:

o‘simliklar karantini obyektlari aniqlanganda;

O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi taqiqlangan ekish materiallari va mahsulotlar aniqlanganda;

karantin ostidagi mahsulotning tegishli hujjatlari (karantin ruxsatnomasi talab etiladigan o‘simliklar va mahsulotlar uchun karantin ruxsatnomasi, xorijiy mamlakatning vakolatli davlat organlari tomonidan beriladigan fitosanitar sertifikat yoki guvohnomasi) mavjud bo‘lmaganda;

a) yuk egasi tomonidan o'simliklar karantini obyektlari aniqlanganda uni zararsizlantirish (fumigatsiya qilish)dan yoki zararlangan mahsulotlarni zararsizlantirish imkoniyati mavjud bo'lmaganda (*zararsizlantirishning samarali usullari mavjud bo'lmaganda*) mahsulotlarni eksportyor davlatga olib chiqishdan bosh tortganda yoki uning imkoni bo'lmaganda;

b) sudning tegishli qaroriga ko'ra.

6). Karantin ostidagi mahsulot yo'q qilishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

a) o'simliklar karantini obyektlari mavjud bo'lgan karantin ostidagi mahsulotni yo'q qilish O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi hamda "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonunlariga va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi;

b) karantin va boshqa xavfli zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlar bilan zararlangan karantin ostidagi mahsulotni zararsizlantirish va yuk jo'natuvchiga qaytarib yuborishning imkoniyati mavjud bo'lmasa, ular yo'q qilinishi (maxsus joyda yoqib yuborish yoki chuqur qazib ko'mib tashlash yo'li bilan) lozim;

v) karantin ostidagi mahsulotni yo'q qilish hududiy boshqarmalarda belgilangan tartibda tuziladigan Komissiya tomonidan amalga oshiriladi;

g) karantin ostidagi mahsulotni olib qo'yish dalolatnomasi tuzilgan kundan e'tiboran **bir kun ichida** davlat inspektori tomonidan dalolatnoma va ekspertiza xulosasi (agarda mavjud bo'lsa) ilova qilingan holda Komissiyaga yuboriladi;

d) Komissiyaning taklifiga ko'ra karantin ostidagi mahsulotni yo'q qilishda mahsulotni olib qo'ygan davlat inspektori ishtirok etishi mumkin;

e) karantin ostidagi mahsulotni yo'q qilish jarayonidan so'ng, Komissiya tomonidan yo'q qilish to'g'risida to'rt nusxada mazkur yo'riqnomaning **4-ilovasiga muvofiq** dalolatnoma tuziladi.

Dalolatnoma Komissiya a'zolari hamda karantin ostidagi mahsulotning egasi (uning vakili yoki yukni qabul qilib oluvchi, tashuvchi) tomonidan imzolanadi va hududiy boshqarma muhri bilan tasdiqlanadi.

Agar karantin ostidagi mahsulot yo'q qilish joyiga mahsulot egasi (uning vakili yoki yukni qabul qilib oluvchi, tashuvchi) belgilangan vaqtda kelmasa, yo'q qilish jarayoni davom ettiriladi va bu haqda yo'q qilish dalolatnomasiga qayd etiladi.

4-§. Qo'l yuklari va bagajlardagi karantin ostidagi mahsulotning fitosanitariya nazoratini o'tkazish

43. Yuridik va jismoniy shaxs (vakil)lar tomonidan O'KCHM orqali qo'l yuklari va bagajlarida karantin ostidagi mahsulotni olib kirishda quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

a) karantin ruxsatnomasi (nusxasi yoki ruxsatnomaning tartib raqami);

b) eksport qiluvchi davlatning fitosanitariya sertifikatini asl nusxasi.

Bunda, karantin ostidagi mahsulot o'simliklar karantini obyektlaridan xoli bo'lishi va O'zbekiston Respublikasi hududidan olib kirilishi taqiqlangan karantin ostidagi mahsulotlar ro'yxatiga kiritilmagan bo'lishi shart.

44. Fitosanitariyaga oid yuqori xavfga ega bo'lgan karantin ostidagi mahsulotni, shu jumladan ekish, payvandlash, ko'paytirish uchun mo'ljallangan ekish materiallarini, xususan, ko'chatlar, ildizlar, barglar, qalamchalar, urug'lar, tugunaklar, piyozboshlar, ildizpoyalarni yoki ularning qismlarini xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasida yashovchi fuqarolarga pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuborish, shu jumladan **bagajda va qo'l yukida olib o'tish taqiqlanadi.**

45. Hujjatlarni tekshirish jarayonida davlat inspektori quyidagilar, jumladan:

eksportyor davlatning fitosanitariya sertifikatini va karantin ruxsatnomasining haqqoniyligini elektron tizim orqali solishtiradi;

eksportyor davlatning fitosanitariya sertifikatining shakli va tarkibiy qismi Fitosanitariya choralari bo'yicha xalqaro 12-standartga muvofiq tarzda (sertifikatdagi barcha ma'lumotlar to'ldirilgan bo'lishi) rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim;

fitosanitariya sertifikatining barcha bandlari to'ldirilganligi, uning imzo va muhr bosilganligi hamda o'simliklarning ilmiy (*botanik*) nomlanishi lotin tilida yozilganligi;

eksportyor davlatning fitosanitariya sertifikatini va karantin ruxsatnomasidagi mahsulotning nomi, turi bilan mos kelishini nazoratdan o'tkazadi.

46. Fitosanitar toza va talab etiladigan hujjatlar mavjud bo'lgan karantin ostidagi mahsulot olib kirilishiga ruxsat etiladi.

47. Fitosanitar qoida va talablarga nomuvofiq bo'lgan karantin ostidagi mahsulot belgilangan tartibda qaytarib yuboriladi, qaytarib yuborishning imkoni bo'lmasa olib qo'yiladi va yo'q qilinadi. Holat yuzasidan Karantin agentligining "e-Fitouz" AAT orqali **24 soat ichida** xabarnoma beriladi.

48. Fitosanitar qoida va talablarga nomuvofiq bo'lgan karantin ostidagi mahsulot egasiga nisbatan davlat inspektori tomonidan vakolati doirasida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiriladi va qonuniy chora ko'rish uchun fuqarolarga nisbatan tuzilgan ma'muriy bayonnoma tegishliligi bo'yicha mansabdor shaxs (hududiy bo'linma rahbari)ga, mansabdor shaxslarga nisbatan tuzilgan ma'muriy bayonnoma (bu masalada hududiy boshqarmaning ma'muriy amaliyot bo'yicha mutaxassisi bilan maslahatlashiladi) tegishli sudga yo'naltiriladi (asos MJtKning 108, 245, 268-5 va boshqa tegishli moddalari).

5-§. Pochtamtdagi o'simliklar karantini punktida fitosanitariya nazorati o'tkazish

49. Yuridik va jismoniy shaxs (vakil)lar tomonidan Pochtamtdagi O'KCHM orqali karantin ostidagi mahsulotni olib kirishda quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

a) karantin ruxsatnomasi (*nusxasi yoki ruxsatnomaning tartib raqami*);

b) eksport qiluvchi davlatning fitosanitariya sertifikatini asl nusxasi.

Bunda, karantin ostidagi mahsulot o'simliklar karantini obyektlaridan xoli bo'lishi va O'zbekiston Respublikasi hududidan olib kirilishi taqiqlangan karantin ostidagi mahsulotlar ro'yxatiga kiritilmagan bo'lishi shart.

50. Eksportyor davlatning fitosanitariya sertifikatini va karantin ruxsatnomasining haqqoniyligi elektron tizim orqali solishtiriladi.

51. Pochta jo'natmalaridagi barcha turdagi karantin ostidagi mahsulot fitosanitar nazoratdan o'tkaziladi.

Qadoq ehtiyotkorlik bilan ochiladi, qadoqning ichki devorlarida tirik zararkunanda mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida ushbu qismlar ham diqqat bilan ko'rikdan o'tkaziladi.

52. Fitosanitariyaga oid yuqori xavfga ega bo'lgan karantin ostidagi mahsulotni, shu jumladan ekish, payvandlash, ko'paytirish uchun mo'ljallangan ekish materiallarini, xususan, ko'chatlar, ildizlar, barglar, qalamchalar, urug'lar, tugunaklar, piyozboshlar, ildizpoyalarni yoki ularning qismlarini xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasida yashovchi fuqarolarga pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuborish, shu jumladan bagajda va qo'l yukida olib o'tish taqiqlanadi. O'simliklar karantini obyektlari bilan zararlanmagan ayrim mevalarni, yangi ho'l meva va sabzavotlarni yo'lovchilarning qo'l yukida o'tkazishga davlat inspektori tomonidan ruxsat beriladi. Alohida qimmatga ega bo'lgan urug'lar, o'simliklar yoki ekish materiallari ilmiy-tadqiqot muassasalarining manziliga yo'llangan taqdirda, ular davlat inspektorining xulosasiga ko'ra introduksiya karantin ko'chatxonasiga tekshirish uchun yuborilishi kerak.

Pochta jo'natmalarida yuqori darajadagi fitosanitar xavfga ega bo'lgan karantin ostidagi mahsulot kelgan taqdirda davlat inspektori tomonidan **mazkur yo'riqnomaning 2-ilovasiga muvofiq shaklda** dalolatnoma tuziladi (*dalolatnoma ikki nusxada tuziladi, bir nusxasi mahsulotni qabul qiluvchiga yuboriladi va ikkinchi nusxasi davlat inspektorida saqlanadi*) mahsulot darhol olib qo'yiladi va belgilangan tartibda yo'q qilish choralari ko'riladi.

Holat yuzasidan "e-Fitouz" AAT orqali Karantin agentligiga **24 soat ichida xabarnoma beriladi.**

53. Pochta jo'natmasidagi o'simlik yoki o'simlik mahsulotining, hattoki bir dona namunasida zararlanganlik alomatlarini kuzatilsa yoki mazkur zararlangan namunada inspektor uchun notanish bo'lgan zararli organizm aniqlansa, mazkur namunalar o'simliklar karantini laboratoriyalariga zararli organizmni aniqlash uchun yuborilishi lozim.

Davlat inspektori o'simliklar karantini obyektlari tarqalishini oldini olish maqsadida mazkur zararlangan pochta jo'natmasidagi mahsulotni izolyatsiyalash choralarini ko'rish shart.

54. Karantin ostidagi mahsulotni pochta orqali eksport qilishda davlat inspektori umumiy asoslarga ko'ra fitosanitariya nazoratidan o'tkazadi va fitosanitar toza mahsulot uchun fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirib beriladi.

55. Karantin ostidagi mahsulotni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va uning hududidan olib chiqish qoidalarini buzgan shaxs (yuk egasi)ga nisbatan davlat inspektori

tomonidan vakolati doirasida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq vakolati doirasida ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiriladi va qonuniy chora ko'rish uchun fuqarolarga nisbatan tuzilgan ma'muriy bayonnoma tegishliligi bo'yicha mansabdor shaxs (hududiy bo'linma rahbari)ga, mansabdor shaxslarga nisbatan tuzilgan ma'muriy bayonnoma (bu masalada hududiy boshqarmaning ma'muriy amaliyot bo'yicha mutaxassisi bilan maslahatlashiladi) tegishli sudga yo'naltiriladi (asos MJtKning 108, 245, 268-5 va boshqa tegishli moddalar).

6-§ Karantin ostidagi mahsulotni karantin ruxsatnomasida belgilangan manzilga yetib kelgan joyda fitosanitariya nazoratdan o'tkazish

56. Karantin ruxsatnomasida belgilangan manzilda (TIF O'KCHM) faoliyat olib boruvchi davlat inspektori Karantin agentligining "e-Fitouz" AAT ("e-Tranzit" AAT) orqali karantin ostidagi mahsulotni o'tganligi to'g'risida **24 soat ichida** xabarnoma kelgan vaqtdan boshlab ushbu mahsulotni o'z vaqtida belgilangan manzilga yetib kelishini nazoratga oladi.

57. Jismoniy va yuridik shaxslar karantin ruxsatnomasi asosida respublika hududiga olib kirilgan karantin ostidagi mahsulotning bojxona rasmiylashtiriluvini amalga oshirishdan oldin mahsulot davlat inspektori tomonidan fitosanitar nazoratdan (karantin ko'rigidan) o'tkazilishi shart.

Bunda, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Karantin agentligining "e-Fitouz" AAT orqali karantin ostidagi mahsulotni fitosanitariya nazoratidan o'tkazish uchun oferta shartnomasi tuzadi va hududiy boshqarmalarga elektron murojaat (zayavka) yuboradi.

58. Karantin ostidagi mahsulot belgilangan manzilga yetib kelganda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan davlat inspektoriga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- a) karantin ruxsatnomasi (*nusxasi yoki ruxsatnomaning tartib raqami*);
- b) eksport qiluvchi davlatning fitosanitariya sertifikatini asl nusxasi.

59. Davlat inspektorining hujjatlarni tekshirish jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

mahsulot qaysi O'KCHM orqali qachon kirib kelganligi, fitosanitariya sertifikatida O'KCHMdan o'tganligi bo'yicha davlat inspektori tomonidan muhr va shaxsiy imzo qo'yilgani, shuningdek, ma'lumotlarni Karantin agentligining "e-Fitouz" AAT ("e-Tranzit" AAT) ishga tushganidan so'ng ma'lumotlar "e-Tranzit" AATga kiritiladi) O'KCHM jurnaliga kiritilganligi tekshiriladi;

eksportyor davlatning fitosanitariya sertifikatini va karantin ruxsatnomasining haqqoniyligini elektron tizim orqali solishtiradi;

eksportyor davlatning fitosanitariya sertifikatining shakli va tarkibiy qismi Fitosanitariya choralari bo'yicha xalqaro standartga 12-standardga muvofiq tarzda (sertifikatdagi barcha ma'lumotlar to'ldirilgan bo'lishi) rasmiylashtirilgan bo'lishi lozimligi;

fitosanitariya sertifikatini barcha bandlari to'ldirilganligi, uning imzo va muhr bosilganligi hamda o'simliklarning ilmiy (botanik) nomlanishi lotin tilida yozilganligi;

eksportyor davlatning fitosanitariya sertifikatini va karantin ruxsatnomasidagi mahsulotning nomi, turi bilan mos kelishi tekshiriladi.

60. Mahsulotlarni karantin ko'rigidan o'tkazish esa bojxona hujjatlari rasmiylashtiriladigan hududdagi davlat inspektori tomonidan transport birligini ochish dalolatnomasi rasmiylashtirilgan holda o'simliklar karantini ko'rigi yoki laboratoriya tekshiruvi o'tkazish uchun ulardan belgilangan tartibda **12-430:2019 Davlatlararo standarti** asosida namunalar olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Transport birligini ochish dalolatnomasida quyidagilar qayd etiladi:

transport birligini ochish dalolatnomasida unikal kod avtomatik tarzda qo'yiladi;

O'KCHM nomi;

davlat inspektori F.I.SH.;

karantin ostidagi mahsulotning nomlanishi (botanik) va miqdori (soni yoki og'irligi);

eksport qilayotgan davlat nomi;

import qiluvchi tashkilot nomi, manzili va INN raqami;

karantin ruxsatnomasi raqami, berilgan sanasi va amal qilish muddati;

eksportyor davlat tomonidan berilgan fitosanitariya sertifikatini raqami;

davlat inspektori F.I.SH.;

transport birligini ochish dalolatnomasi rasmiylashtirilgan sana.

61. Karantin ostidagi mahsulotning karantin tekshiruvi davlat inspektori tomonidan bojxona nazorati hududida ularni tushirish va bojxona identifikatsiya vositasini olib tashlash (*plombani yechish*) joyida o'rnatilgan tartibda karantin ko'rigi yoki laboratoriya tekshiruvi o'tkazish uchun karantin ostidagi mahsulotdan namuna olish orqali amalga oshiriladi.

62. Davlat inspektori mahsulot partiyalarini ko'rikdan o'tkazishni boshlashdan avval mahsulot qay darajada fitosanitar xavf tug'dirishini aniqlab olishi lozim. Import qilinayotgan mahsulotning xavflilik darajasini belgilashda asos sifatida oldindan olingan fitosanitar xavf tahlili ma'lumotlari, karantin ruxsatnomasi ma'lumotlari, yukni kuzatib boruvchi hujjatlar, huddi shunday yuklar avval olib kirilganda ularda o'tkazilgan tekshiruv natijalarini o'rganadi.

63. Vagon, konteyner yoki avtotransport eshigini ochishda davlat inspektori zararkunandalarning uchib va boshqa yo'llar bilan chiqishi mumkin bo'lgan holatlarini kuzatadi.

64. Davlat inspektori O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan karantin ostidagi mahsulotda o'simliklar karantinidagi zararli organizmlarni mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida yuklarni vizual ko'rikdan o'tkazadi, shuningdek, zararsizlantirilganligini, yukni zararsizlantirish bo'yicha ishlov berilganligining samaradorligini, yukda turli xil o'simlik qoldiqlari yoki tuproq mavjud emasligini, ruxsat etilmagan mahsulotlar yo'qligini aniqlaydi, mahsulotlarni qadoqlash hamda tashishga qo'yilgan talablarga rioya etilishini tekshiradi.

65. Davlat inspektori mahsulotlarni tekshiruvdan o'tkazishda yuqori darajadagi fitosanitar xavfga ega karantin ostidagi mahsulotdan **12-430:2019 Davlatlararo standarti**

asosida namunalar olib, Markaziy fitosanitariya laboratoriyasiga ekspertizadan o'tkazish uchun jo'natishi shart.

66. Yuklarda zararli organizmlar mavjudligini aniqlashda, birinchi navbatda ularning tashqi belgilari (*alomatlari*) asosida tahlil qilinadi.

67. Barcha turdagi transport birliklardagi mahsulotlar tushirilgan taqdirda davlat inspektori transport birliklarining polini va devorlarini ko'rikdan o'tkazadi.

Mahsulotlarda yashirin zararlanganlik alomatlarini aniqlashda laboratoriya ekspertizasidan foydalanilishi shart.

Barcha turdagi ekish materiallarining namunalari tezkor ravishda Karantin agentligining Markaziy fitosanitariya laboratoriyasiga o'rnatilgan tartibda yuboriladi va laboratoriya xulosasiga asosan davlat inspektori tomonidan o'z vaqtida belgilangan tartibda fitosanitar choralar ko'riladi.

68. Import qilinayotgan karantin ostidagi mahsulotni zararsizlantirish va boshqa karantin chora-tadbirlarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha xarajatlar, shu jumladan ishchi kuchidan, transportdan, xonalardan va yordamchi materiallardan foydalanish tegishli yukni oluvchilar yoki karantin ostidagi mahsulotni jo'natuvchilar hisobidan amalga oshiriladi.

69. Agar mahsulot partiyalarini karantin ko'rigidan o'tkazish chog'ida, o'simlik yoki o'simlik mahsulotlarining, hattoki bir dona namunasida zararlanganlik alomatlari kuzatilsa yoki zararlangan namunada davlat inspektori uchun notanish bo'lgan zararli organizm aniqlansa, mazkur namunalar o'simliklar karantini laboratoriyasiga yuborilishi lozim hamda davlat inspektori o'simliklar karantini obyektlari tarqalishini oldini olish maqsadida mazkur zararlangan mahsulotni izolyatsiyalash choralari ko'rishi shart.

7-§. O'tkazilgan fitosanitariya nazorati natijasida davlat inspektori tomonidan qaror qabul qilish

70. Respublika hududiga olib kirilgan karantin ruxsatnomasi va eksportyor davlat tomonidan berilgan fitosanitariya sertifikatining asl nusxasi mavjud (*barcha talablarga muvofiq*) bo'lgan hamda karantin ostidagi mahsulot (*davlat inspektori fitosanitariya nazoratidan o'tkazilganda yoki laboratoriya xulosasiga ko'ra*) fitosanitar toza deb topilganda qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibda karantini ko'rigi dalolatnomasi Karantin agentligining "e-Fitouz" AAT orqali elektron tarzda rasmiylashtiriladi.

